



IJTIMOIIY-GUMANITAR SOHADA ILMIIY-INNOVATION TADQIQOTLAR

ILMIY METODIK JURNALI

ISSN 3060-5059



VOL.3 № 5

2026

ASKIYA – MANTIQIY TAFAKKUR FALSAFASI

Abdurashid Mirzaxmedov

Namangan davlat texnika universiteti, professor (PhD)

Kamron Ahmadaliyev

Namangan davlat texnika universiteti, talaba

Annotatsiya

Maqola o'zbek halq og'zaki ijodining o'ta muhim va murakkab shakli askiya, qiziqchilik san'atining o'ziga xos ijtimoiy-falsafiy jihatlarini mantiqiy nuqtai nazardan taxlil etilgan. Milliy nafosat va farosat falsafiy taraqqiyotida askiya eng qadimiy so'z o'yini, kulgu madaniyatining ijtimoiy tafakkurga asoslangan hozirjavoblik bilan o'ziga xos teatrlashgan san'at hisoblanadi. Askiyaning mazmuni ishtirokchining notiqlik san'ati, milliy turmush tarzi, odat va an'alarini nozik tomonlarini ham anglab etmoqligini talab etadi. Boz ustiga askiya zakiylik bilan birga qiziqchidan yuksak axloqiy fazilatlar bilan sahnada milliy tarbiyani jadid ma'rifatparvari bo'lib maydonga chiqadi.

Kalit so'zlar. Askiya, mantiqiy bahs, notiqlik musobaqasi, payrov, kulgu sayli, estetik haqiqat.

АСКИЯ ИСКУССТВО ЛОГИЧЕСКОГО МЫШЛЕНИЕ

Абдурашид Мирзахмедов

Наманганский государственный технический университет, профессор (PhD)

Камрон Ахмадалиев

Наманганский государственный технический университет, студент

Аннотация

В статье с точки зрения логики анализируются уникальные социально-философские аспекты юмористического искусства аскии, чрезвычайно важной и сложной формы узбекского народного устного творчества. Аския в философском развитии национальной этической красоты явилась древнейшей словесной игрой, уникальным театральным искусством юмористической культуры, современность которой основана на социальном мышлении. Содержание аскии требует от участника понимания тонкостей ораторского искусства, национального образа жизни, обычаев и традиций. Более того, аския, наряду со своим интеллектом, предстает на сцене как традиционного просвещения национального воспитания, потенциалом высоких нравственных традиций народа.

Ключевые слова. Аския, логическая аргументация, ораторское состязание, карнавальное остроумие, эстетическая истина.

ASKIYAH THE ART OF LOGICAL THINKING AGRICULTURAL TEXTS

Abdurashid Mirzakhmedov

Namangan State Technical University, Professor (PhD)

Kamron Ahmadaliyev

Namangan State Technical University, Student

Abstract

This article analyzes the unique socio-philosophical aspects of the humorous art of askiya, an extremely important and complex form of Uzbek folklore, from a logical perspective. In the philosophical development of national ethical beauty, askiya emerged as an ancient verbal game, a unique theatrical art of humorous culture, the modernity of which is based on social thinking. The content of askiya requires the participant to understand the subtleties of oratory, the national way of life, customs, and traditions. Moreover, askiya, along with its intellect, is presented on stage as a traditional source of national education and the potential for the high moral traditions of the people.

Keywords: askiya, logical argumentation, oratorical competition, carnival wit, aesthetic truth.

O'zbek xalqining falsafiy fikr taraqqiyoti ildizining chuqurligi askiya san'ati bilan izohlanadi. Chunki so'z o'yini ibtidoiy odamlarning o'zaro axborot almashuvi imo-ishoralardan tovush signallariga o'tishi bilan o'zaro hazil-huzul yoki estetik tuyg'ularini ifodalashda tovush signallaridan foydalanilgan. "Aqlli odam"ning o'lkamizdagi turmush tarzida qiziqchilik, askiya bilan olamni falsafiy anglash, atrof-

muhitdagi bo'layotgan voqealarni axloqiy tushunish va tushuntirish shaklida kulgi madaniyatining turli teatrlashgan janrlari rivojlangan [6; 8; 18, 9-b.].

Dunyo xalqlari og'zaki ijodi namunalarida " ritorika " atamasi orqali odamlarning o'zaro bahs-munozarasi, ob'ektiv olam nafosatini badiiy so'z orqali tomoshabinga yetkazib berish malaka va ko'nikmalari badiiy adabiyotda so'zlash usuli yoki madaniyati shaklida qonun-qoidalar asosida shakllantirilgan. Shu bois o'zbek xalq og'zaki ijodi – folklor, tashqi olam haqidagi bilimlar, xalqning ijtimoiy turmushni rivojlantirishdagi donishmandligi ma'nosida "iskusstvo slovesnosti" adabiyoti alohida ajralib chiqqan. Tarixiy manbalarda turli xalqlarning so'z ustalari, notiqlik san'ati, xususan, yunon-rim madaniyatida sofistlar notiqlikning alohida falsafiy maktabiga asos solganlar [10, 877-b.]. Notiqlik san'ati, badiiy so'z ustalarining ajralib chiqishi, xalqning milliy bayram, tantana, festival va sayillarida qiziqchilik rivojlanganidan yumor va komediyaning genetik kelib chiqishi hamda rivoji "karnaval san'ati" shaklida ta'riflash qabul qilingan.

Askiya kulgi san'atining alohida estetik janri bo'lib, originallik xususiyati bilan boshqa xalqlarda uchramaydi. Ayni vaqtda askiya arabchadagi "zakiy" (o'tkir zehni, hozirjavob) ma'nosida milliy xalq og'zaki ijodi folklor janri sifatida rivojlangan mantiqiy tafakkur musobaqasi bo'lib, alohida va guruhli shaklda teatrlashtirilgan tomosha (shou) hisoblanadi [3; 4; 6, 227-b.]. Askiyachilik ajdodlardan avlodlarga genetik o'tadigan so'zamolikda axloqiy va go'zallikni badiiy namoyish etishga qaratilgan og'zaki badiiy tortishuvdir. O'zbek xalqining to'y-tantana, bayram va sayillarida ommaning kayfiyatini xush qilish uchun so'zning kuch va qudrati, tilning ma'no va mazmun jihatidan naqadar mantiqiy kengliklarini yoritishga qaratilgan ijodkor va san'atkorlarning bir muammo va mavzu doirasidagi bahsdir [4, 36-b.].

Askiya san'ati muayyan hududiy jihatga ega bo'lib, vodi yoki vohada odamlar tabiiy ravishda askiyachilikka moyil bo'lib, zukko va teran fikrlay oladilar. Biz Farg'ona vodiysida Andijon, Marg'ilon va Qo'qon askiya maktablari vakillarining vodiyni barcha hududlariga yoyilgani, hatto Qo'qon xonligi hududiga kirgan Jizzaxga ham tarqalganligini aniqladik. Shu ma'noda askiya va qiziqchilik san'ati rivojiga oid O'zbekiston hukumatining maxsus qarori ijrosini ta'minlash maqsadida mazkur tadqiqot amalga oshirildi. Shu bilan birga, askiya va qiziqchilik san'atiga oid tadqiqotlarning asosiy qismi filologiya fanlari nuqtayi nazaridan amalga oshirilganligi ham masalaning ijtimoiy-falsafiy jihatlarini tadqiq etishni dolzarb muammo sifatida kun tartibiga qo'yimoqda [9; 12; 18; 21; 22].

Adabiyotlar tahlili. Maqola mavzusining o'zbek xalq og'zaki ijodi bilan bevosita bog'liqligi, O'zbekiston taraqqiyot strategiyasida o'zbek xalqining milliy-madaniy merosi, an'ana va qadriyatlarini tiklash borasidagi O'zbekiston hukumatining me'yoriy hujjatlari huquqiy-dasturiy asos qilib olindi [16]. Askiya va qiziqchilik san'ati taraqqiyotiga oid adabiyotlar tahlillarini ta'lim tizimi uchun o'quv qo'llanma va darsliklar bilan birinchi guruhga jamlash mumkin [3; 4, 36-b.; 8; 9; 10]. Ikkinchi guruh ilmiy tadqiqotlarda askiya va qiziqchilik san'ati umumiy kulgi madaniyati nuqtayi nazaridan ilmiy tadqiq etilmoqda [13; 18; 22]. Shu bilan birga, ilmiy adabiyotlar orasida o'zbek xalqining qiziqchilik teatri, taniqli qiziqchilarning ijodiy faoliyati va merosi, uning jamiyat ijtimoiy taraqqiyotiga ta'siriga oid tadqiqotlar ham ilmiy jamoatchilik fikrini o'ziga tortadi [1; 8; 10; 16; 20].

Muhokama va natijalar. Askiya san'ati tarixan teatr san'ati tizimidagi janr sifatida xalq sayil va to'ylarida namoyish etilgan tafakkur musobaqasi bo'lib, unda tomonlar o'zining zehn va hozirjavobligini badiiy so'z teatr sahna asari sifatida ko'rsata olish qobiliyatidir. Taraflar ba'zan sahnada, sayil yoki choyxona davrasida qarama-qarshi o'tirgan, turgan yoki davra qurgan holda yuzma-yuz tezkor mavzu bo'yicha payrov bilan javob beradilar. Tafakkur bahsining lo'nda, serma'no, latif, ta'sirli, jozibali va kulgili chiqishi sahna va zalni o'zaro badiiy bog'laydi. Askiyada payrov muhim bo'lib, tomonlar javob topishda payrovdan tashqariga chiqmasligi, tomoshabin manfaatlaridan kelib chiqqan holda ishtirokchilarga o'zbek so'z boyligini namoyish qilishga "yordam berishi" jo'mardlik hisoblanadi. Askiyachilar mantiqiy payrovli musobaqada yutish maqsadida tomoshabinning ko'ngil tubidagi tuyg'ularini ham "qitiqlash" orqali kulgining nozik jihatlarini ijodiy yoritishga intiladilar. Biz masalani ilmiy tadqiqot natijalari bilan dalillaymiz [1, 134-b.; 3; 10; 15; 19].

Tomoshabin askiyachilar bilan birga sahnada turgandek o'z kulgi va ehtirosini qichqirib, ommaviy jo'rovoz kulgi bilan san'atkorlarni qo'llab-quvvatlab turadilar. Askiyachilar mazmundor, serqochirim payrovlari bilan tomoshabinni "katarsis" holatiga solishi, o'zaro so'z o'yinida bir-birining beg'araz askiyasi, o'zaro tanqid, kamsitish va kamchiliklar ustidan masxara qilishdan o'zlarini tiyib, askiyaning talablari doirasida chiroyli "mantiqiy dialog" bilan zaldagi barcha yoshdagi ayol va erkaklarni birdek zavqlantiradi. Askiyaning mazmunli, serzavq, kulgili chiqishida taraflardan hozirjavoblik, badihago'ylik, shuningdek, mavzuga aloqador keng va chuqur ma'noli so'zlarni topa bilish, yuz, ko'z, qo'l

va tana harakatlaridan, tovush hamda imo-ishoralardan o‘rinli foydalana bilish talab etiladi.

Askiyachilik kasbiy faoliyat bo‘lolmaydi, sohaning kadrlarini maktab yoki ta‘lim tizimida askiyachi kasbiga tayyorlash amalda murakkab ishdir. Askiyachilar bolalikdan san‘atkorlar orasida o‘shishi, quvnoq va zukko oilada voyaga yetishi, ota-ona, bobo va buvilarning ham san‘atga daxldorligi bilan shakllanadigan “qondan o‘tadigan” merosiylik jihatiga ega. Boz ustiga, askiyachilarning ko‘pchiligi o‘zbek xalq musiqa asboblarini chalishi, hatto milliy xalq amaliy san‘ati turlarida ham yaxshi kasb-korga egaligi foydalidir. Biz Marg‘ilonlik taniqli askiyachi Xotamjon qiziqning hayoti va biografik faoliyati bilan fikrimizni dalillaymiz. Askiyachilik san‘ati vakillari tarixan “qiziq” atamasi bilan atalgan, ya‘ni “Yusufjon qiziq”, “Jo‘raxon qiziq”, “Mamasiddiq qiziq” kabi nomlar bilan tanilgan. Shu bilan birga askiyachilar tabiiy ravishda payrovga kirishda laqablari asosida “birinchi parda”ni ochib beradilar. Askiyachilarning laqablari bo‘lsa-da, ular sha‘n va or-nomusga tegmaydigan sahna odobi doirasida so‘z o‘yinini amalga oshiradilar [20].

Askiya san‘ati millatning ijtimoiy ongi va tafakkurida demokratik xalqchilikning namoyishidir. G‘arb madaniyatida alohida notiqning so‘zamolligi, bahs va munozaralar orqali ijtimoiy muammolarni hal etishga, fikrlar xilma-xilligiga intilish kuzatilgan. Shu ma‘noda MDH xalqlari og‘zaki ijodida bahs va munozara san‘at darajasiga siyosiy jihatdan erishgan. Rossiya xalqlari orasida xalq og‘zaki ijodi ritorikasi “Haqiqat bahslarda tug‘iladi” tamoyili asosida shakllangan. O‘zbek xalq og‘zaki ijodidan farqli ravishda slavyan xalqlarida bir g‘oyaning yakka hokimligiga qarshi zulm va zo‘ravonlikka qarshi kurashning siyosiy-huquqiy jihatlari qaror topgan. Bahs-munozara tomonlarning muayyan fikr yuzasidan o‘z nuqtayi nazarini og‘zaki asoslar bilan himoya etishi, o‘z fikrini turli yo‘llar bilan asoslash sifatida tushunilgan. Askiya va qiziqchilik o‘zbek xalq og‘zaki ijodi, milliy til va madaniyat boyligini namoyish etish vositasidir [7, 34-b.].

Askiya san‘atida esa sahnada jamoaviy yoki yakka kurash tartibida bir mavzu-payrov bo‘yicha o‘tkir ijtimoiy muammolar muhokamasi so‘z o‘yini shaklida namoyish etiladi. Shu ma‘noda tomonlar o‘zaro bir-birini hurmat qilgan holda ma‘naviy-axloqiy talablar doirasida “ijtimoiy hazil” qiladi, bu hazillarning ostida mantiqiy yashirin ma‘no-mazmun, fikrdan yana o‘zgacha ma‘noli mantiqiy “gaplar”ni tomoshabinga yetkazishi bilan quvnoqlik muhitini hosil qiladilar. Askiyada bahs mavzusi — payrov o‘ta muhim unsur hisoblanadi [8; 9]. Chunki askiyaning maqsadi muayyan payrov orqali dialektik tarzda jamiyat uchun foydali yechimlarning mantiqiy asoslariga ishora qilishdir. Askiya payrovlari an‘anaviylik va zamonaviylikni o‘zida ifoda etgan qiziqchilik san‘atining rivojlanish bosqichlarini aks ettiradi. Chunki payrovdan chiqmaslik, uning ijobiy yechimi tomon mantiqiy fikr yo‘nalishi, tomonlarning o‘zaro bir-biriga bu yechimlarda tomoshabin manfaatidan kelib chiqqan holda hamkorlik qilishi ham san‘atning bag‘rikenglikka asoslangan milliy hikmatidir. Askiyaning muhim jihati — mantiqiy bahsda ishtirokchilarning e‘tibori tomoshabinlarning turli yosh va jinsiga, kasb-koriga, milliy-diniy qadriyatlarini yoki his-tuyg‘ulariga daxl qilmaydigan darajada ritorikaning yuksak axloqiy nafosatini tarannum etishidir [4; 11].

Askiyaning payrov-mavzulari keng qamrovli bo‘lishi bilan birga mantiqiy zukkolikni talab etishi tufayli ijtimoiy haqiqatni aniqlashda noan‘anaviy yechimlar takliflari bilan millatning og‘zaki donishmandlik xazinasini boyitadi, deb hisoblaymiz. Askiyachilardagi fikrlar to‘qnashuvi kulgi san‘atining yuksak pardalarida bir atamaning bir necha o‘nlab ma‘nolarini zakiylik bilan “kuylanishi” improvizatsiya san‘ati ekanligini tasdiqlaydi. Dunyo xalqlarida ijtimoiy muammolarning ma‘muriy-huquqiy yechimlariga e‘tibor berilsa, o‘lkamizda shaxs, jamiyat va davlat muammolari asosan jamoaviy yechimlar, o‘zaro kulgi fenomeni orqali axloqiy hal etilgan. Askiyaning ma‘naviy-estetik jihati unda tomonlardan birining g‘alabasi emas, balki tomoshabinni yuksak ma‘naviy-ruhiy quvonch, emotsional huzurlanish (katarsis) holatiga olib kirishidir [4, 36-b.; 15].

Askiyada tomonlarning ijtimoiy-madaniy jihatdan ijtimoiy hayot haqidagi bilimdonligi, ob‘ektiv voqelikdagi muhokama mavzusi bo‘yicha dialogda o‘zining fuqarolik pozitsiyasini namoyon etadi. Askiyachilar badiiy so‘z bellashuvida o‘zlarining “raqibi”ga qarshi so‘z o‘yinida shu qadar samimiy lutf bilan murojaat etadilarki, tomoshabinning ko‘z oldida inson qadr-qimmatining axloqiy nafosat bilan uyg‘unlashuvi yuz beradi. Askiyada payrov bo‘yicha javob bera olmagan odam yutqazgan hisoblansa-da, tomonlarning o‘zaro askiya musobaqasida tomoshabinning yutishi tabiiy holdir. Askiyaning asosiy maqsadi dala-yu dashtda halol mehnat qilib toliqqan dehqonning ko‘nglini chog‘lash, xush kayfiyat bilan g‘am-anduhdan xalos etishdir.

Xulosa. O‘zbek xalq og‘zaki ijodi ajdodlardan avlodlarga milliy-diniy madaniyat qonun-qoidalari, turmush tarzi, ma‘naviy-axloqiy tajribalar merosi sifatida milliy ta‘lim va tarbiyani o‘zida

mujassam etadi. O'zbek xalq og'zaki ijodiy nomoddiy merosining muhim jihati millatning ob'ektiv borliqni anglash va o'zlashtirish borasidagi bilimlar yig'indisi — xalq donishmandligi saboqlari hisoblanadi. Shu ma'noda O'zbekiston hukumatining milliy an'ana va qadriyatlarni tiklash borasidagi qonun, qaror va boshqa me'yoriy hujjatlari muammoning huquqiy-dasturiy asosi bo'lib xizmat qiladi.

Askiya va qiziqchilik sayil yoki maydon madaniyati bo'lib, o'zbek xalqining milliy, o'ziga xos, original va boshqa xalqlarda uchramaydigan kulgi san'atidir. Askiyachilik kasb bo'lmay, balki o'zbek xalq teatr san'atining janri, o'zbek xalq hunarmandchiligi turlaridan biri hisoblanadi. Farg'ona vodiysining go'zal tabiati, sersuv daryolari, serhosil dehqonchiligi, mazali meva-sabzavotlari va bog'dorchiligi aholining turmush tarzi hamda o'zaro aloqalarida hazil-huzul, turli badiiy so'z o'yinlari musobaqa shakliga aylanib, askiya va qiziqchilikning san'at darajasiga chiqishiga sabab bo'lgan. Askiyachilarning kasbiy maktablari bo'lmay, balki muayyan quvnoq oilaviy yoki ijtimoiy muhitdagi kommunikatsiya insonning mantiqiy tafakkur qobiliyatini shakllantirib rivojlantirgan. Askiyachilikka o'qitib, insonda ushbu malakani oddiy ta'lim ko'nikmalari shaklida hosil qilish amalda imkonsizdir. Shu ma'noda biz Qo'qon xonligi hududlaridagi ob'ektiv tarixiy sharoitda askiyachilik gullab-yashnaganini kuzatamiz. Askiya va qiziqchilik teatr san'atiga aloqador bo'lib, aktyorda chuqur bilimdonlik, kreativ ijodiy malaka va ko'nikma bilan sahnada o'zini so'z o'yini ustasi ekanligini namoyish etishni talab qiladi.

Teatr san'atining barcha janrlarida aktyorlar sahnaga muayyan ssenariy yoki matn asosida tayyorgarlik bilan chiqadi, sahnada belgilangan matn doirasidan chiqmaydi. Askiyachi esa biror tayyorgarliksiz, payrovni bilmagan holda chiqsa ham, chiroyli kulgi san'ati bilan tomoshabinga xush kayfiyat bag'ishlaydi. Askiyachi tug'ma mantiqiy tafakkur salohiyati bilan payrov bo'yicha kulgili javobni ayni vaqt va joyning o'zida ayta olishi orqali nozikfahmlik va improvizatsiya qobiliyatini ko'rsatadi. Bundan tashqari, askiyada payrovlarning o'sha kunning ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy jihatdan dolzarb muammolariga bag'ishlanishi askiyachida o'ziga xos sahna mahorati va teatr ko'nikmalarini rivojlantiradi. Shu ma'noda askiya va qiziqchilik milliy axloq va nafosat san'atining oliy darajadagi kulgi san'ati hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Абдуллаев Х. Узбекский народный театр кизикчи // Звезда Востока. — 1961. — № 4. — С. 134–144.
2. Аския: искусство остроумия. — URL: Uzbloknot (дата доступа: 02.05.2025).
3. Do'stmatov X. Askiya so'z o'yinlari san'ati. — T.: Fan, 2022. — 144 b.
4. Дустматов Х. Об узбекском искусстве аския // Балтийский гуманитарный журнал. — 2017. — № 1(18). — С. 36–40.
5. Дўсматов Х. Об узбекском искусстве игры слов // Путь науки. — 2017. — № 3(17).
6. Иванов С.С. Игра слов и способы ее создания: семантическая и звуко-семантическая игра слов // Вестник Нижегородского университета им. Н.И. Лобачевского. — 2009. — № 6(2). — С. 227–231.
7. Мирзахмедов А., Мирзахмедов Х. Правовые парадигмы государственного языка // Евразийский журнал социальных наук. — 2024. — № 1. — С. 34–46.
8. Mannopov S., Sheryayev M. O'zbek xalqining askiya va qiziqchilik san'ati. — Farg'ona: Farg'ona nashr, 2020. — 182 b.
9. Мухаммадиев Р. Аския. Ўзбек халқ оғзаки ижоди [Электронный ресурс]. — Ташкент: Азиатский книжный дом, 2023. — 142 с.
10. Мухаммадиев Р. Аския санъати. — Ташкент, 1962. — 218 с.
11. Риторика // Литературная энциклопедия терминов и понятий / под ред. А.Н. Николюкина. — СПб.: Интелвак, 2001. — 1596 с.
12. Руденко А.М., Могилевская Г. Феномен репрессивного смеха в культуре киберпространства // Гуманитарный журнал Юга России. — 2017. — № 6(4). — С. 34–41.
13. Salomov M., Raxmanova G. Askiya va qiziqchilik san'atining kecha va buguni // International Scientific Journal "Modern Science and Research". — 2023. — № 2(10). — С. 414–420.
14. Сергеев А.А., Макарова Л.С., Одинцова Л.А. Изучение чувства юмора как элемента неформальной коммуникации // Вестник Волгоградского государственного университета. — 2012. — № 2(4). — С. 73–77.
15. Скутин А.В., Ефименко Т.С. Гелиотерапия в практике психотерапевта // Журнал неврологии и психиатрии. — 2018. — № 12. — С. 57–60.
16. Троицкая А.Л. Из истории народного театра и цирка в Узбекистане // Советская этнография. — 1948. — № 3. — С. 21–24.

17. O‘zbekiston Prezidentining 2023-yil 11-iyuldagi PQ-222-sonli “Respublikada milliy askiya va qiziqchilik san’atini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori. — URL: Lex.uz
18. Kambarov A., Tojimatova O. Jamiyatning ijtimoiy rivojlanishida askiya san’atining o‘rni va ahamiyati // Центральноазиатский журнал образования и инноваций. — 2025. — № 4(1). — С. 45–49.
19. Qodirov M. Masxaraboz va qiziqchilik san’ati. — Toshkent: Fan, 1971. — 230 b.
20. Qodirov M. Yusufjon qiziq. — Toshkent: Fan, 1991. — 164 b.
21. Kulmamatov O.A. Askia — шедевр узбекского народного творчества // Education Journal of Educational Discoveries and Lifelong Learning (EJEDL). — 2023. — № 4(02). — С. 127–131.
22. Xaitov X. Adabiyot kulgi va hazilning niqobi // Образование и наука и инновационные идеи в мире. — 2023. — № 18(2). — С. 14–19.
23. Хайитбаев Д.К. Об искусстве аския // Anglisticum. Journal of the Association-Institute for English Language and American Studies. — 2017. — № 5(12). — С. 32–38.